




“Tasdiqlayman”

Xalqaro Nordik universiteti  
rektori Sh.Mustafakulov

2023-yil



**XALQARO NORDIK UNIVERSITETIDA TALABALARНИ  
О‘QISHDAN KO‘CHIRISH, TALABALAR SAFIDAN CHETLASHTIRISH,  
AKADEMIK TA’TIL BERISH VA O‘QISHINI TIKLASH TO‘G‘RISIDA**

**NIZOM**

*Nizom Xalqaro Nordik universiteti kengashining  
2023-yil 15-fevraldag'i 4-sonli kengash qarori bilan tasdiqlangan.*

**Toshkent-2023**

## I. Umumiy qoidalar

1.1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi 637-sonli “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 20-iyundagi 393-sonli “Oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish, talabalar o‘qishini ko‘chirish, qayta tiklash va o‘qishdan chetlashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan.

1.2. Nizom Xalqaro Nordik universiteti (Keyingi o‘rinlarda Universitet deb yuritiladi) talabalar o‘qishini ko‘chirish, qayta tiklash, o‘qishdan chetlashtirish, akademik ta’til berish va ta’tildan so‘ng ularning o‘qishini davom ettirish tartibi hamda tashkiliy asoslarini belgilab beradi.

1.3. Universitetda talabalar o‘qishini ko‘chirish, qayta tiklash va o‘qishdan chetlashtirish hamda bu boradagi ishchi guruh faoliyatining shaffofligini ta’minlash maqsadida rasmiy saytda alohida ma’lumotlar bazasi tashkil etiladi.

1.4. Ma’lumotlar bazasi mazkur Nizom, ishchi guruh ro‘yxati va ularga topshiriladigan hujjatlar namunalari, sinovlarni o‘tkazish muddatlari, manzili aks ettirilgan jadvaldan tashkil topadi.

1.5. Talabalar o‘qishini ko‘chirish, qayta tiklash va o‘qishdan chetlashtirish Rektor buyrug‘i asosida amalga oshiriladi.

**1.6. Quyidagi holatlar fuqaroning o‘qishni ko‘chirish va qayta tiklash haqidagi arizasiga rad javobi berilishiga asos bo‘ladi:**

— xorijiy davlatlarning akkreditatsiyaga ega bo‘lmagan oliy ta’lim muassasalari yoki ularning filiallarida o‘qigan;

— respublika oliy ta’lim muassasalaridagi mavjud ta’lim shaklidan o‘zga (boshqa) ta’lim shaklida o‘qigan;

— oliy ta’lim muassasalarining markazlari, bo‘limlari, o‘quv-maslahat punktlari va boshqalarda o‘qiganlarga;

— birinchi kursning birinchi semestriga birinchi semestr tugallanmagan holatda o‘qishni ko‘chirishga (talabaga kasallik tufayli akademik ta’til berilgan holatlar, o‘qigan ta’lim yo‘nalishi mavjud bo‘lmaganda ko‘chirib tiklash holatlari bundan mustasno);

— oliy ta’lim muassasasida mos (turdosh) ta’lim yo‘nalishi (mutaxassisligi) yoki ta’lim shakli mavjud bo‘lmasa;

— namunaviy o‘quv rejalaridagi umum-kasbiy va ixtisoslik (mutaxassislik) fanlari bo‘yicha farqlar 4 ta dan oshganda;

— to‘lov-kontrakt asosida o‘qishga tavsiya etilganlar to‘lovni belgilangan muddatda amalga oshirmaganda;

— talabaning shaxsiy yig‘ma jildi (akademik ma’lumotnoma) belgilangan muddatlarda taqdim etilmaganda;

— moddiy-texnika bazasining imkoniyati cheklanganda;

— talaba O‘zbekiston va xorijiy oliy ta’lim muassasalarining o‘zaro kelishuvi asosida qabul qilinib, qo‘shma ta’lim dasturlari asosida tahsil olgan yoki tahsil olayotgan bo‘lsa (mazkur qo‘shma dasturning o‘zi bundan mustasno);

— qonun hujjatlarida keltirilgan boshqa holatlarda.

Fuqaroning o‘qishini ko‘chirish yuzasidan arizasiga rad javobi berilganda, arizani ko‘rib chiqish uchun berilgan muddatda, arizada ko‘rsatilgan manzilga, arizani ko‘rib chiqqan komissiya tomonidan javob xati yo‘llanadi.

1.7. Talabalarning o‘qishini ko‘chirish, qayta tiklash va o‘qishdan chetlashtirishni rasmiylashtirishda Universitet rektori belgilangan tartibda ta’lim dasturidagi mavjud akademik qarzlarni yoki farqlarni topshirish tartibi va muddatlarini (joriy semestr davomida), o‘qitish kursi (semestri) hamda o‘qishga qabul qilishning boshqa shartlarini belgilaydi.

1.8. Universitetning ichida talabalarning o‘qishini ko‘chirishda ta’lim yo‘nalishlarining xususiyati, talabaning o‘qishga kirishda test topshirgan fanlar majmuasining mosligi, o‘quv rejasidagi fanlarning, soni va ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, aniq fanlarini o‘qiganligidan kelib chiqib amalga oshiriladi.

1.9. Xorijiy fuqarolarning o‘qishini xorijiy OTMdan Universitetga ko‘chirish suhbat asosida amalga oshiriladi.

1.10. Talabalar o‘qishini ko‘chirish va qayta tiklashda to‘lov kontrakt bo‘yicha shartnomaga tuzish tartibi va shartlari, jumladan, to‘lov mablag‘lari va muddatlari Universitet tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

## **II. Talabalar o‘qishini ko‘chirish tartibi**

2.1. Universitet doirasida oliy ta’limning mos va turdosh yo‘nalishlari hamda mutaxassisliklari bo‘yicha talabalar o‘qishini ko‘chirish va qayta tiklash Universitet rektorining buyrug‘i asosida amalga oshiriladi.

2.2. Talabalarning o‘qishini ko‘chirish va qayta tiklash bo‘yicha arizalarni topshirish hamda ko‘rib chiqishda quyidagi tartibga amal qilinadi:

— o‘qishni ko‘chirish va qayta tiklash bo‘yicha arizalarni taqdim etish – har yili 15-iyuldan 5-avgustga qadar amalga oshiriladi.

— arizalarni ishchi guruh tomonidan ko‘rib chiqish – har yili 5-avgustdan 30-avgustga qadar amalga oshiriladi.

Talabalar o‘qishini ko‘chirish uzrli sabablarga ko‘ra (respublikaning bir hududidan ikkinchi hududiga doimiy yashash uchun yoki turmushga chiqish munosabati bilan turmush o‘rtog‘i doimiy yashaydigan (pasport bo‘yicha doimiy ro‘yxatdan o‘tgan) hududga ko‘chib o‘tganda, turmush o‘rtog‘i yoki ota-onasi harbiy xizmat o‘tash joyini o‘zgartirganda, yoxud ota-onasi (turmush o‘rtog‘i) xorijdagi davlat xizmatidan qaytganda) bahorgi semestrda o‘quv mashg‘ulotlari boshlanishidan oldin ham amalga oshirilishi mumkin. Bunda:

— o‘qishini ko‘chirish bo‘yicha ariza topshirish – har yili 20-dekabrdan keyingi yilning 20-yanvariga qadar;

— o‘qishini ko‘chirish bo‘yicha arizani ko‘rib chiqib, qaror qabul qilish – har yili 25-yanvardan 15-fevralga qadar amalga oshiriladi.

2.3. O‘qishni ko‘chirish va qayta tiklash istagini bildirgan fuqaro (talaba) quyidagi hujjatlarni Universitetga taqdim etadi:

— ko‘chirish (qayta tiklash)ni istagan ta’lim yo‘nalishi ko‘rsatilgan holdagi ariza (unda o‘qigan oliv ta’lim muassasasi va ta’lim yo‘nalishi (mutaxassisligi), ta’lim shakli, ko‘chirish (qayta tiklash) sabablari, ko‘chirish (qayta tiklash) qoidalari bilan tanishganligi ko‘rsatiladi;

— talabaning reyting daftarchasi yoki akademik ma’lumotnomada nusxalari;

— xorijiy oliv ta’lim muassasalaridan o‘qishini ko‘chirayotgan talabalar tomonidan taqdim etilgan akademik ma’lumotnomada (transkript) ko‘rsatilgan fanlarni o‘qishda muammo yuzaga kelgan holatlarda o‘qishini ko‘chirmoqchi bo‘lgan talabandan akademik ma’lumotnomasining notarial tasdiqlangan tarjimasini so‘rashga haqli.

2.4. Talabalar o‘qishini ko‘chirish va qayta tiklash haqidagi arizani ko‘rib chiqish va qaror qabul qilish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

— arizalarni ko‘rib chiqib, ishchi guruh keyingi bosqichga o‘tish qarorini qabul qiladi va bu haqida ariza bergan shaxsga ma’lum qilinadi;

2.5. Universitet rektorining buyrug‘i bilan o‘qishi ko‘chirilayotgan (qayta tiklanayotgan) talaba darslarga qo‘yiladi hamda talaba ilgari ta’lim olgan oliv ta’lim muassasasiga uning shaxsiy yig‘ma jildini jo‘natish uchun so‘rovnoma yuboriladi.

2.6. So‘rovnoma olingandan so‘ng, talaba ilgari ta’lim olgan oliv ta’lim muassasasi rektorining talabalar safidan chetlashtirish haqida buyrug‘i asosida 3 kun muddatda talabaning shaxsiy yig‘ma jildi ro‘yxati bilan uni o‘qishga qabul qilgan oliv ta’lim muassasasiga jo‘natiladi yoki ariza bilan o‘qishi ko‘chirilgan (qayta tiklangan) talabaga beriladi.

2.7. Universitet rektorining talabani belgilangan tartib va muddatda darslarga qatnashishiga ruxsat berish to‘g‘risidagi buyrug‘i talaba ilgari ta’lim olgan oliv ta’lim muassasasidan uning shaxsiy yig‘ma jildi olingandan keyin rasmiylashtiriladi.

2.8. O‘qishi ko‘chirilgan (qayta tiklanganlar)ni talabalar safiga o‘qishga qabul qilish to‘g‘risidagi Universitet rektorining buyrug‘i ular tomonidan belgilangan muddatda shartnoma to‘lovlari bajarilgandan so‘ng 10 kun muddatda chiqariladi.

2.9. O‘quv rejalardagi fanlar farqi aniqlanganda talaba fanlarni akademik qarzdor (feyl) sifatida o‘qishga qabul qilinadi, “akademik baholash tartibi” asosida akademik qarzdorlik (farqlar) bartaraf etib boriladi.

2.10. Universitet tomonidan ta’sis etilgan grantlar asosida tahsil olayotgan talabaga (ichki ko‘chirish nazarda tutilmoqda) ta’limning mos va turdosh ta’lim yo‘nalishlari hamda mutaxassisliklariga grant asosida ko‘chirishga ruxsat etiladi.

2.11. Universitetda yuridik shaxs bilan tuzilgan shartnoma asosida ta’lim olayotgan talabaning o‘qishini ko‘chirish ushbu yuridik shaxsning roziligi bilan amalga oshiriladi.

### **III. Talabalar o‘qishini qayta tiklash tartibi**

3.1. Universitetda talabalarning o‘qishini qayta tiklash bo‘yicha arizalarni topshirish va ko‘rib chiqish bir yilda ikki marta amalga oshiriladi:

— o‘qishni kuzgi semestrga qayta tiklash bo‘yicha ariza topshirish – har yili 15-iyuldan 5-avgustga qadar;

— o‘qishni bahorgi semestrga qayta tiklash bo‘yicha ariza topshirish – har yili 15-yanvardan 25-yanvarga qadar davom etadi. Qayta tiklash bo‘yicha arizalar ishchi guruhi tomonidan ko‘rib chiqilib, qaror qabul qilinadi;

— kuzgi semestrga qayta tiklash uchun – har yili 5-avgustdan 30-avgustga qadar;

— bahorgi semestrga qayta tiklash uchun – har yili 25-yanvardan 15-fevralga qadar amalga oshiriladi.

3.2. Talabalar o‘qishini qayta tiklash haqidagi arizani ko‘rib chiqish va qaror qabul qilish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

— ushbu Nizomning 1.7-bandida ko‘rsatilgan holatlar bo‘yicha ariza ko‘rib chiqilib, rektorning tegishli qarori qabul qilinadi va bu haqida ariza bergen shaxsga shaxsan ma’lum qilinadi.

3.3. Talabalar safidan chetlashtirilgan fuqarolar o‘qishini Universitetning mos (turdosh) ta’lim yo‘nalishi (mutaxassisligi)ga ko‘chirib, tiklash to‘g‘risida ariza berish huquqiga ega. Bunda arizaga qo‘srimcha ravishda o‘qishni ko‘chirish tartibi asosida hujjatlar taqdim etiladi.

3.4. Barcha o‘quv shakllari bo‘yicha talabalar safiga qayta tiklash to‘lov kontrakt asosida mazkur Nizom talablariga rioya qilingan holda amalga oshiriladi.

3.5. Universitet rektorining talabalarini talabalar safiga qayta tiklash, belgilangan tartib va muddatlarda darslarda qatnashishga ruxsat etish to‘g‘risidagi buyrug‘i (ko‘chirib, tiklashda talaba ilgari ta’lim olgan oliy ta’lim muassasasidan uning shaxsiy yig‘ma jildi, shaxsiy yig‘ma jild jo‘natilishi mumkin bo‘lmagan hollarda, akademik ma’lumotnoma) olingandan keyin rasmiy lashtiriladi.

3.6. To‘lov-kontrakt asosida o‘qishi tiklanganlarni talabalar safiga o‘qishga qabul qilish to‘g‘risidagi Universitet rektorining buyrug‘i ular tomonidan shartnomaga to‘lovlari bajarilgandan so‘ng 10 kun muddatda qabul qilinadi.

3.7. O‘quv rejalarida fanlar bo‘yicha farqlar aniqlanganda talaba akademik qarzdor (fail) sifatida o‘qishga qabul qilinadi.

3.8. O‘qishdan chetlashtirilgan (kursdan qoldirilgan) o‘quv yilida kursiga talabani o‘qishga qayta tiklash (ko‘chirib tiklash)ga yo‘l qo‘yilmaydi (talabaning oilaviy sharoiti va imkoniyatlari cheklangan taqdirda Universitet kengashining qaroriga asosan istisno tariqasida yo‘l qo‘yilishi mumkin).

3.9. O‘qishdan chetlatilganligiga 5 yildan 10 yilgacha muddat (harbiy xizmatda bo‘lganligi, 3 yoshgacha bo‘lgan bolalarni parvarish qilish bilan bog‘liq mehnat ta’tili hamda sog‘liqni qayta tiklash vaqtлari ushbu muddatga kirmaydi) bo‘lgan hollarda talabalar o‘qishini qayta tiklash Universitet kengashi qarori orqali amalga oshiriladi.

#### **IV. Talabalarni o‘qishdan chetlashtirish tartibi**

4.1. Talaba Universitetdan quyidagi holatlarda chetlashtirilishi mumkin:

- a) o‘z xohishiga binoan;
- b) o‘qishning boshqa ta’lim muassasasiga ko‘chirilishi munosabati bilan;
- c ) salomatligi tufayli (tibbiy komissiya ma’lumotnomasi asosida);
- d) o‘quv intizomi va oliy ta’lim muassasasining ichki tartib-qoidalari hamda odob-axloq qoidalari buzganligi uchun;
- e) o‘qish uchun belgilangan to‘lov o‘z vaqtida amalga oshirilmaganligi sababli (to‘lov kontraktidan qarzdor talabalar keyingi o‘quv yilida faqatgina o‘zlashtira olmagan fanlarini qayta o‘qish imkoniyatlariga ega bo‘lishlari uchun kursdan-kursga qoldirilishlari ham mumkin);
- f) talaba sud tomonidan ozodlikdan mahrum etilganligi munosabati bilan;
- g) vafot etganligi sababli.

4.2. Talabaning o‘zlashtira olmagan fanlar soni bir o‘quv yili davomida besh va undan ortiq bo‘lgan holatda kursdan-kursga o‘tkazilmaydi.

4.3. Talaba Universitetdan chetlashtirilganda unga (ota-onasi yoki huquqiy vasiysiga ularning arizasi bilan) shaxsiy hujjatlari, belgilangan shakldagi akademik ma’lumotnomalar topshiriladi va ularning nusxasi shaxsiy yig‘ma jildga tikib qo‘yiladi.

#### **V. Talabalarga akademik ta’til berish**

5.1. Universitet talabalariga akademik ta’til quyidagi hollarda berilishi mumkin:

- harbiy xizmatni o‘tash uchun;
- salomatligini tiklash uchun;
- homiladorlik va tug‘ish uchun;
- bolalarni parvarish qilish uchun;

— oilasining betob a’zosini (otasi, onasi yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar, turmush o‘rtog‘i, farzandi)ni parvarish qilish uchun.

5.2. Akademik ta’til o‘quv yilining har qanday qismida, quyidagi muddatlarga beriladi:

— harbiy xizmatni o‘tash uchun – qonunchilik hujjatlarida belgilangan harbiy xizmatni o‘tash muddatiga;

— homiladorlik va tug‘ish, shuningdek, bolalarni parvarish qilish uchun – qonunchilik hujjatlarida belgilangan homiladorlik va tug‘ish, shuningdek, bolalarni parvarish qilish ta’tillari muddatiga;

— salomatligini tiklash hamda oilasining betob a’zosini parvarish qilish uchun – keyingi yilning talaba tomonidan to‘liq o‘zlashtirilmagan semestri boshlanguniga qadar bo‘lgan muddatga. Bunda, qayd etilgan muddatlardan biri talabaning arizasiga muvofiq Universitet rektori tomonidan belgilanadi.

5.3. Talabaga akademik ta’til berilishi uni Universitetdan chetlashtirish, deb hisoblanmaydi.

qadar bo‘lgan muddatga. Bunda, qayd etilgan muddatlardan biri talabaning arizasiga muvofiq Universitet rektori tomonidan belgilanadi.

5.3. Talabaga akademik ta’til berilishi uni Universitetdan chetlashtirish, deb hisoblanmaydi.

5.4. Akademik ta’til olish uchun talaba (sog‘lig‘i holatiga ko‘ra talaba shaxsan murojaat etish imkoniyatiga ega bo‘lmasa, uning ota-onasi yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar yoki turmush o‘rtog‘i) tomonidan Universitet rektori nomiga ariza bilan murojaat qilinadi.

5.5. Akademik ta’til olishni so‘rab murojaat qilgan talabaning arizasiga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

— harbiy xizmatni o‘tash uchun – tegishli tuman (shahar) mudofaa ishlari organlarining talabani harbiy xizmatga chaqirish haqidagi chaqiruv qog‘ozisi;

— salomatligini tiklash, homiladorlik va tug‘ish, shuningdek, bolalarni parvarish qilish uchun – talaba doimiy tibbiy nazoratda turgan tibbiyot muassasasi xulosasi;

— oilasining betob a’zosini parvarish qilish uchun – oilasining betob a’zosi doimiy tibbiy nazoratda turgan tibbiyot muassasasi xulosasi.

5.6. Talaba surunkali kasalligi sababli bir oydan ortiq vaqt davomida darslarda qatnasha olmasa, talaba yoki uning ota-onasi yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar yoki turmush o‘rtog‘ining arizasiga asosan talabaga akademik ta’til berilishi mumkin. Bunda, akademik ta’til muddati o‘tishining boshlanishi talaba darslarda qatnasha olmayotgan kundan boshlab hisoblanadi.

5.7. Talabaga salomatligini tiklash hamda oilasining betob a’zosini parvarish qilish uchun akademik ta’til berilishi mazkur Nizomning 1-ilovasida keltirilgan Xalqaro Nordik Universiteti talabalariga tibbiy ko‘rsatmalar bo‘yicha akademik ta’til berishga oid kasalliklar ro‘yxatiga muvofiq amalga oshiriladi.

5.8. Talabaning akademik ta’til olish haqidagi murojaati bir haftalik muddatda ko‘rib chiqiladi.

Talabaga akademik ta’til berish Univeristet rektorining buyrug‘i bilan rasmiylashtiriladi. Ushbu buyruqda akademik ta’tilning boshlanish va tugash sanasi ko‘rsatilishi shart.

5.9. Akademik ta’til beriladigan talabalar arizasiga (ixtiyoriga) ko‘ra Universitet rektorining buyrug‘iga muvofiq, uning o‘qishi akademik ta’til muddatiga ta’limning sirtqi yoki masofaviy ta’lim shakliga o‘tkazilishi mumkin.

Bunda muayyan bakalavriat ta’lim yo‘nalishi (magistratura mutaxassisligi) bo‘yicha sirtqi yoki masofaviy ta’lim shakli mavjud bo‘lgan taqdirda talabaning o‘qishi arizasiga ko‘ra belgilangan muddatga ushbu ta’lim shakliga o‘tkaziladi.

Imtihonlar natijalariga ko‘ra barcha fanlardan talaba ko‘rsatkichi belgilangan o‘tish balidan yuqori bo‘lgan taqdirda talabaga navbatdagi o‘quv semestridan (kursdan) o‘qishini davom ettirishiga ruxsat etiladi.

Imtihonlar natijalariga ko‘ra bir yoki undan ko‘p fanlardan talaba ko‘rsatkichi belgilangan o‘tish balidan past bo‘lgan taqdirda talabaning o‘zlashtirilmagan o‘quv semestrining boshidan o‘qishini davom ettirishi belgilanadi.

Mazkur bandda nazarda tutilgan tartib harbiy xizmatni o‘tash uchun akademik ta’til berish holatiga nisbatan tatbiq etilmaydi.

5.10. Salomatligini tiklash yoki oilasining betob a’zosini parvarish qilish uchun akademik ta’tilda bo‘lgan talabalarda homiladorlik va tug‘ish holatlari yuzaga kelgan taqdirda, akademik ta’tilning muddati homiladorlik va tug‘ish uchun mazkur Nizomda belgilangan akademik ta’tilning muddatiga uzaytiriladi.

Talabaning salomatligi yoki oilasining betob a’zosi salomatligi tiklanmaganda talabaning arizasiga ko‘ra Universitet rektorining buyrug‘i asosida akademik ta’til muddati ushbu toifadagi holatlar uchun belgilangan muddatlarga uzaytiriladi.

5.11. O‘quv semestri yakunlanishiga bir oy muddat qolgandan boshlab mazkur semestr uchun turmush o‘rtog‘i yoki ota-onasi Hukumat qarorlari va topshiriqlariga muvofiq xorijiy davlatga uzoq muddatli xizmat safariga yuborilganligi sababli talabaga uning arizasiga asosan alohida grafik asosida darslarni o‘zlashtirish imkoniyati yaratiladi.

Navbatdagi semestrda ushbu talaba dars mashg‘ulotlarida bevosa itishga etishi yoki akademik ta’til olishi yoxud o‘z arizasiga ko‘ra talabalar safidan chetlashtirilishi mumkin.

## **VI. Talabalarning akademik ta’tildan qaytishi**

6.1. Talaba akademik ta’tilga chiqqan kundan boshlab bir oy o‘tmagan bo‘lsa, akademik ta’tilni bekor qilish va o‘qishga qaytishni so‘rab oliy ta’lim muassasasiga ariza bilan murojaat etishga haqli.

6.2. Talaba akademik ta’tilning muddati tamom bo‘lgandan so‘ng o‘qishga qaytish bo‘yicha Universitet rektori nomiga ariza bilan murojaat qilishi shart.

Talaba akademik ta’tildan belgilangan muddat tamom bo‘lgandan so‘ng o‘qishga qaytish bo‘yicha Universitet rektori nomiga ariza bilan murojaat qilgan taqdirda uning arizasini asossiz ravishda rad etishga yo‘l qo‘yilmaydi.

6.3. Agar akademik ta’til davrida talaba tahsil olgan bakalavriat ta’lim yo‘nalishi (magistratura mutaxassisligi) tugatilgan bo‘lsa, talabaning o‘qishini mazkur oliy ta’lim muassasasining turdosh bakalavriat ta’lim yo‘nalishi (magistratura mutaxassisligi) bo‘yicha, agar bunday bakalavriat ta’lim yo‘nalishi (magistratura mutaxassisligi) mavjud bo‘lmasa, turdosh bo‘limgan bakalavriat ta’lim yo‘nalishiga (magistratura mutaxassisligiga) ko‘chirib, tiklash masalasi ariza bilan birga ko‘rib chiqiladi va Universitet nizomida belgilangan tartibda hal etiladi.

6.4. Homiladorlik va tug‘ish, shuningdek, bolalarni parvarish qilish uchun akademik ta’tilda bo‘lgan talabalar kamida keyingi o‘quv yilining talaba tomonidan to‘liq o‘zlashtirilmagan semestri boshlanishi muddatiga o‘qishga qaytishi mumkin.

6.5. Akademik ta'tildan qaytish bo'yicha talabaning murojaati bir haftalik muddatda ko'rib chiqiladi va uning oliy ta'lim muassasasiga o'qishga qaytishi to'g'risida Universitet rektorining buyrug'i rasmiylashtiriladi.

Ushbu buyruqda talaba akademik ta'tildan qaytgandan so'ng o'qiydigan bakalavriat ta'lim yo'nalishi (magistratura mutaxassisligi), o'quv kursi va guruhi ko'rsatiladi.

6.6. Akademik ta'tildan belgilangan muddatda qaytgan talabalarga ilgari o'zlashtirilgan fanlarni qayta o'zlashtirish majburiyati yuklatilmaydi.

## **VII. Yakuniy qoidalar**

7.1. Mazkur Nizom Universitet Kengashida ko'rib chiqilib, rektor tomonidan tasdiqlanadi hamda Xalqaro Nordik universiteti ta'sischilar kengashi bilan kelishiladi. Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishda ham xuddi shu tartibga rioya qilinadi.

7.2. Talabalar o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish jarayonida shaxsiy yig'ma jilddagi hujjatlar to'liq taqdim etilmagan yoki taqdim etilgan hujjatlarga o'zgartirishlar kiritilganligi yoxud hujjatlar o'rnatilgan tartibda tasdiqlanmaganligi aniqlangan holatlarda Universitet rektori mazkur hujjatlarni tekshirish va buyruq chiqarmaslik huquqiga ega.

7.3. Universitetdan o'qishini ko'chirgan, qayta tiklagan va o'qishdan chetlashtirilgan talabalarning shaxsiy yig'ma jildiga tegishli buyrug'dan ko'chirma ariza va akademik ma'lumotnomasi tikib qo'yiladi.

7.4. Universitetga talabalar o'qishni ko'chirish qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish asos bo'lgan barcha hujjatlar arxivda 3 yil davomida saqlanishi lozim.

7.5. Mazkur Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

**XALQARO NORDIK UNIVERSITETI TALABALARIGA TIBBIY  
KO'RSATMALAR BO'YICHA AKADEMIK TA'TIL BERISHGA OID  
KASALLIKLAR RO'YXATI**

1. Sil kasalligining faol va asoratlangan shakllari.
2. Surunkali kechuvchi o'pkaning nospetsifik kasalliklari bilan bog'liq yurak-o'pka faoliyatlar yetishmovchiligi (III daraja).
3. II va III darajali surunkali qon aylanishi buzilishi (Nyu-York klassifikatori bo'yicha III va IV daraja) bilan kechuvchi yurak klapanlari va mushaklarining organik o'zgarishlari.
4. II va III darajali qon bosimining oshishi, tez rivojlanuvchi qon bosim oshishi (xavfli gipertoniya).
5. Hayot uchun xavfli yurak ritmi va o'tkazuvchanlikning buzilishi bilan kechuvchi holatlar (MAS sindromi, AV qamal II-III darjasи, sinus tuguni zaifligi sindromi, yurak qisqarish soni kunduzi bir minutda 50 va undan past bo'lsa, nomuqim gemodinamika bilan kechuvchi paroksizmal taxikardiyalar (SAB 90 mm simob ustunidan past holat).
6. Barcha bosqichdagi xavfli o'sma kasalliklari (2 yil oldin radikal davolanganlar bundan mustasno).
7. Turg'un buyrak yetishmovchiligi bilan kechuvchi buyrak va boshqa a'zolar kasalliklari.
8. Statsionar sharoitida davolanish talab etiladigan oshqozon-ichak tizimi yara va yallig'lanish kasalliklarining o'tkir davri.
9. Og'ir va qo'shma travmatik shikastlanishlar.
10. Statsionar sharoitida bir oy muddatdan ortiq davolanish va reabilitatsiya qilish zarur bo'lgan turli etiologiyalik jigar kasalliklari va surunkali pankreatit (surunkali gepatitlar, jigar sirrozi).
11. Endokrin kasalliklarining og'ir shakli (akromegaliya, diffuz toksik bo'qoq, buyrak osti bezining yetishmovchiligi, gipoterioz, qandli diabet kasalligining birinchi turi, Itsenko-Kushing kasalligi).
12. Qon tizimi kasalliklari:
  - a) o'tkir va surunkali leykozlar;
  - b) Idiopatik trombotsitopenik purpura;
  - v) aplastik anemiya.
13. Asab sistemasi surunkali organik kasalliklarining asoratlari natijasida aql-zakovatning chuqr va turg'un buzilishi hamda psixopatik buzilishlar.
14. Shizofreniya barcha turlarining xuruj davri.
15. Tez-tez takrorlanuvchi tutqanoqli, tutqanoqsiz va psixomotor xurujlari bilan, shuningdek, hushning xiralashuvi va og'ir disforiya bilan kechuvchi epilepsiya, shu jumladan:
  - a) kam takrorlanuvchi xurujlar bilan shaxsning chuqr o'zgarishi va aql-zakovat buzilishi bilan kechuvchi epilepsiya;
  - b) epileptik psixozlar.
16. Tez-tez xurujlanuvchi siklotimiya, maniakal depressiv psixoz va tez-tez takrorlanuvchi maniakal depressiv holatlar.
17. Psixopatiyaning tez-tez dekompensatsiyalanishi bilan kechuvchi turlari.
18. Og'ir, surunkali kechuvchi teri kasalliklari:
  - a) asoratlangan psoriaz;
  - b) po'rsildoq yara;
  - v) Layell sindromi;

- |                                                                                        |
|----------------------------------------------------------------------------------------|
| g) Stivens-Jonson sindromi.                                                            |
| 19. Zaxmning yuqumli bosqichi.                                                         |
| 20. Traxomaning I, II va III darajalari.                                               |
| 21. Giyohvandlik, toksikomaniyaning barcha turlari (tamakiga tobelik bundan mustasno). |
| 22. Orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi (OITS/OIV).                              |

**XALQARO NORDIK UNIVERSITETI TALABALARIGA TIBBIY KO'RSATMALAR  
BO'YICHA AKADEMIK TA'TIL BERISHGA OID KASALLIKLAR RO'YXATI**

1. Sil kasalligining faol va asoratlangan shakkllari.
2. Surunkali kechuvchi o'pkaning nospetsifik kasalliklari bilan bog'liq yurak-o'pka faoliyatlar yetishmovchiligi (III daraja).
3. II va III darajali surunkali qon aylanishi buzilishi (Nyu-York klassifikatori bo'yicha III va IV daraja) bilan kechuvchi yurak klapamlari va mushaklarining organik o'zgarishlari.
4. II va III darajali qon bosimining oshishi, tez rivojlanuvchi qon bosim oshishi (xavfli gipertoniya).
5. Hayot uchun xavfli yurak ritmi va o'tkazuvchanlikning buzilishi bilan kechuvchi holatlar (MAS sindromi, AV qamal II-III darajasi, sinus tuguni zaifligi sindromi, yurak qisqarish soni kunduzi bir minutda 50 va undan past bo'lisa, nomuqim gemodinamika bilan kechuvchi paroksizmal taxikardiyalar (SAB 90 mm simob ustunidan past holat).
6. Barcha bosqichdagi xavfli o'sma kasalliklari (2 yil oldin radikal davolanganlar bundan mustasno).
7. Turg'un buyrak yetishmovchiligi bilan kechuvchi buyrak va boshqa a'zolar kasalliklari.
8. Statsionar sharoitida davolanish talab etiladigan oshqozon-ichak tizimi yara va yallig'lanish kasalliklarining o'tkir davri.
9. Og'ir va qo'shma travmatik shikastlanishlar.
10. Statsionar sharoitida bir oy muddatdan ortiq davolanish va reabilitatsiya qilish zarur bo'lgan turli etiologiyalik jigar kasalliklari va surunkali pankreatit (surunkali gepatitlar, jigar sirrozi).
11. Endokrin kasalliklarining og'ir shakli (akromegaliya, diffuz toksik bo'qoq, buyrak osti bezining yetishmovchiligi, gipoterioz, qandli diabet kasalligining birinchi turi, Itsenko-Kushing kasalligi).
12. Qon tizimi kasalliklari:
  - a) o'tkir va surunkali leykozlar;
  - b) Idiopatik trombotsitopenik purpura;
  - v) aplastik anemiya.
13. Asab sistemasi surunkali organik kasalliklarining asoratlari natijasida aql-zakovatning chuqr va turg'un buzilishi hamda psixopatik buzilishlar.
14. Shizofreniya barcha turlarining xuruj davri.
15. Tez-tez takrorlanuvchi tutqanoqli, tutqanoqsiz va psixomotor xurujlari bilan, shuningdek, hushning xiralashuvi va og'ir disforiya bilan kechuvchi epilepsiya, shu jumladan:
  - a) kam takrorlanuvchi xurujlar bilan shaxsning chuqr o'zgarishi va aql-zakovat buzilishi bilan kechuvchi epilepsiya;
  - b) epileptik psixozlar.
16. Tez-tez xurujlanuvchi siklotimiya, maniakal depressiv psixoz va tez-tez takrorlanuvchi maniakal depressiv holatlar.
17. Psixopatiyaning tez-tez dekompensatsiyalanishi bilan kechuvchi turlari.
18. Og'ir, surunkali kechuvchi teri kasalliklari:
  - a) asoratlangan psoriaz;
  - b) po'rsildoq yara;
  - v) Layell sindromi;
  - g) Stivens-Jonson sindromi.
19. Zaxmnning yuqumli bosqichi.
20. Traxomaning I, II va III darajalari.
21. Giyohvandlik, toksikomaniyaning barcha turlari (tamakiga tobelik bundan mustasno).
22. Orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi (OITS/OIV).